



## ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARI TALQINI

**BATIROVA NAZOKAT  
BAXTIYOROVNA**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent  
axborot texnologiyalar universiteti, assistenti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she'riyatida folklor unsurlarining poetik vazifasi va estetik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shoir ijodida xalq og'zaki ijodi namunalarining – maqol, matal, ramz, obraz va an'anaviy tasvir vositalarining qo'llanishi uning badiiy tafakkuri, falsafiy qarashlari hamda milliy o'zlikni ifodalashdagi yondashuvi bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Tadqiqotda folklor unsurlarining shoir individual uslubi bilan uyg'unlashuvi, ularning zamonaviy ijtimoiy-axloqiy mazmun bilan boyitilishi hamda lirik qahramon ruhiyati ifodasidagi o'rni ochib beriladi. Tahlil natijalari Abdulla Oripov she'riyati xalq ruhiyati va adabiy tafakkur sintezining yorqin namunasi ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:**

Abdulla Oripov ijodi, she'riyat, folklor, maqol va matallar, ramzlar, badiiy uslub, xalq ruhiyati, adabiy tahlil.

### **Kirish.**

XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida Abdulla Oripov ijodi alohida o'rin tutadi. Shoir she'riyati mazmun teranligi, falsafiy mushohadaga boyligi va milliy ruh bilan sug'orilganligi bilan ajralib turadi. Uning ijodiy merosida folklor unsurlariga murojaat qilish nafaqat badiiy bezak, balki xalq dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini ifodalashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois Oripov she'riyatida folklor an'analari tutgan o'rni va ularning zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg'unlashuvini ilmiy jihatdan tahlil etish dolzarb masalalardan biridir.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik, struktural va poetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shoir she'rlarida uchraydigan folklor unsurlari an'anaviy xalq og'zaki ijodi namunalariga qiyoslab o'rganildi hamda ularning badiiy transformatsiyasi aniqlashtirildi.

### **Asosiy qism.**

#### **1. Abdulla Oripov she'riyatida folklor va xalqona tafakkur.**

Abdulla Oripov ijodining muhim xususiyatlaridan biri uning jonli xalq tiliga va xalq turmush tarziga yaqinligidir. Xalqning urf-odatlarini, e'tiqodlarini va kundalik hayot tajribasini chuqur bilish shoir metaforalarining xalqona bo'lishini ta'minlaydi. Shu

jihatdan Oripov she'riyati xalq og'zaki ijodi bilan uzviy aloqada shakllangan badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Shoir asarlarida folklor unsurlari tayyor qolipda emas, balki yangi ijtimoiy va axloqiy mazmun bilan boyitilgan holda qo'llanadi. Bu holat uning individual ijodiy uslubini belgilovchi muhim omillardan biridir.

## 2. Maqol va matallarning poetik transformatsiyasi.

Abdulla Oripov she'rlarida xalq maqollari va iboralari alohida poetik vazifa bajaradi. Shoir ularni ko'pincha to'liq shaklda emas, balki ma'no markazini tashkil etuvchi komponentlari orqali qo'llaydi. Abdulla Oripovning she'rlarida ko'plab xalq maqollari va iboralarini uchratamiz. Shoir ana shu xalq tafakkuri durdonalarini tayyor holatda asarga kiritish, shu tariqa asarini badiiy bezash yo'lidan bormaydi. Ansincha, she'r mazmunini yangi ijtimoiy- axloqiy g'oyalar bilan boyitadi. O'zbek xalqining yuksak odob-axloqi va madaniyatini ko'rsatadigan maqol va matallari juda ko'p. Xalqning ko'ngliga ko'zgu bo'lgan bunday hikmatlar she'rda ibratli chuqur ma'no kasb etadi: uning estetik ta'sir kuchini oshiradi. Shoir iboralarni, maqol va matallarni shunday o'rinli qo'llaydiki, kitobxon bu hikmatlar xalqnikimi yoki shoirning o'zi yozgan to'qimami, payqamay qoladi. Bu hol Abdulla Oripovning she'rlari mohiyatidagi xalqona poetik tafakkurni namoyon etadi. Shoirning xalq ruhini, uning fikrlash tarzi va ijodkorligining asosiy jihatlarini puxta o'zlashtirib olganligidan dalolat beradi. Ma'lumki, xalq maqollarining aksariyati ikki qismdan iborat bo'ladi. Bunday maqollarda asosiy fikr birinchi qismda ifodalanadi, ba'zan esa ikkinchi qism birinchi qismga parallel yoki sinonimik xarakterda bo'ladi. Ayrim hollarda esa maqolning bir qismi ham ishlatilib ketaveradi. Abdulla Oripov ham she'rda ba'zan ana shu usulni qo'llaydi va maqolning asosiy fikr ifodalangan birinchi komponentini qo'llash orqali maqsadga erishadi:

*Men bir tajribasiz, g'o'r yigit nechun,  
Adashding, deyapman dunyoga, hayhot!  
Oh, shoir xanjarni o'zingga urgin,  
Sen o'zing adashmay o'sdingmi, nahot.*

Maqolning asl shakli "Pichoqni oldin o'zingga ur, og'rimasa, birovga" tarzidadir. Abdulla Oripov ana shu maqolning birinchi, qismidangina foydalanadi va "pichoq" so'zini "xanjar" so'zi bilan almashtiradi. Albatta, "pichoq" so'zining o'zi qo'llanaverganda ham na qofiyaga, na vaznga daxl qilardi, hatto mazmun ham saqlanardi. Ammo muallif mubolag'a san'atini ishga solgan va pichoqdan o'tkir, mazmunan ta'sirli "xanjar" so'zini qo'llagan. Ammo shoir daf'atan o'zi haqida o'ylab qoladi va "xanjarni o'zingga ur", ya'ni birovni ayblashdan oldin o'z xatolaring haqida o'yla, deydi. Muallif o'zining yoshlik xatolari bilan insoniyat bolaligidagi xatolar o'rtasida allaqanday o'xshashlik ko'radi. Bunday o'xshashlikni asoslashda xalq maqoli asosiy rolni o'ynagan. Masalan, mashhur "Pichoqni oldin o'zingga ur, og'rimasa, birovga" maqolining bir qismi shoir tomonidan badiiy kontekstga moslashtiriladi va "xanjar" obrazi orqali ta'sirchanlik kuchaytiriladi. Bu yerda mubolag'a va ramziy almashtirish san'ati shoirning badiiy mahoratini ko'rsatadi.

"It hurar – karvon o'tar" maqoli asosida yaratilgan she'riy parcha bunga yorqin misoldir. Dastlab xalqona tasalli beruvchi fikr keltiriladi, keyin esa ushbu tasallining hayotiy haqiqat oldida o'zligi ko'rsatiladi. Natijada lirik qahramon kechinmalari orqali

ijtimoiy muhitga nisbatan keskin munosabat ifodalanadi. Shoir ba'zan maqollarni inkor qiladi, teskari shaklda qo'llaydi. "Deydilar" to'rtligida:

*Deydilar, it hurar – o'tadi karvon,  
Ranju alamlardan yonmasin joning.  
Lekin alam qilar bir umr giryon,  
Itlar orasidan o'tsa karvoning.*

Dastlabki ikki misrada maqol va unga sharh sifatidagi fikr berilgan. Xalqning ming-milliyon yillik tajribasi asosida chiqargan xulosasi shu: It huradi, ammo karvon o'taveradi. Majoziy ma'noda it-pastlik, razillik, munofiqlik timsoli, karvon-ulug'lik, ezgulik timsoli. Nokaslar, noqislar, norasolar har qancha intilgani bilan ulug'lar shuhratiga soya sololmaydi, ularning yaxshilik yo'lidagi urinishlarini bekor qilolmaydi. Maqoldan kelib chiqadigan ma'no shu. Ammo keyingi ikki misra ta'bir joiz bo'lsa, ana shu ming-milliyon yillik tasalliga qarshi isyon, taskinlardan yuz o'girishdir! Agar karvonning atrofida bir umr itlar akillasa-chi?! Endi bunga chidab bo'lmaydi. Unda xalqning katta tajribaga asoslangan o'g'itlari ham taskin-tasalli berolmaydi. Bir umr it-fe'l odamlar orasida yashash-azob! Dahshat! Fojia! Abdulla Oripov o'quvchida lirik qahramonni azoblayotgan "itfe'llar" muhitga qarshi g'azab, nafrat uyg'otadi, she'rning ta'sir kuchi, zarbini oshiradi. Shoir ayrim hollarda maqollarning an'anaviy mazmunini inkor etib, ularni teskari talqinda qo'llaydi. "It hurar – karvon o'tar" maqoli asosida yaratilgan she'riy parcha bunga yorqin misoldir. Dastlab xalqona tasalli beruvchi fikr keltiriladi, keyin esa ushbu tasallining hayotiy haqiqat oldida ojizligi ko'rsatiladi. Natijada lirik qahramon kechinmalari orqali ijtimoiy muhitga nisbatan keskin munosabat ifodalanadi.

Xalqimizda "Yurgan daryo, o'tirgan buyra" (aslida "buyra" shevaga xos "bo'yro" shaklida bo'lsa kerak, shunda qofiya to'liq bo'ladi) degan maqol bor. Abdulla Oripov "Kaliforniyada choyxo'rlik" she'rida mazkur paremaning birinchi komponentinigina qo'llaydi:

*Yurgan daryo, der xalqimiz, yursang ko'rgaysan,  
Xo'p ajoyib suhbatlarning gashtin surgaysan.*

Maqolli bu bayt she'rdagi voqea bayonidan keyingi xulosaning boshlanish qismidir. Shoir Kaliforniyada choyxo'rlik voqeasini bayon qilgandan so'ng: sayohat yaxshi odat, u insonga juda ko'p narsalarni oshno etadi" degan xulosa chiqaradiki, xulosaning asl mazmuni ana shu maqol orqali ifodalangan.

### **3. Folklor ramzlari va zamonaviy dunyoqarash.**

Oripov she'riyatida folklor ramzlari zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. "Yurgan daryo, o'tirgan buyra" maqolining faqat bir qismi qo'llanishi orqali sayohat, harakat va izlanish g'oyasi ilgari suriladi. Bu yerda folklor unsuri umumlashtiruvchi xulosa vazifasini bajarib, she'rning g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi.

Shoir folklor obrazlari orqali milliy mentalitetni ifodalaydi, shu bilan birga ularni zamonaviy hayot muammolari bilan bog'laydi. Natijada xalqona hikmatlar yangi falsafiy mazmun kasb etadi.

#### **Muhokama.**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Oripov she'riyatida folklor unsurlari estetik bezak emas, balki mazmun yaratuvchi asosiy poetik omil hisoblanadi. Shoir xalqona

tafakkurni chuqur o'zlashtirgan holda uni individual ijodiy qarashlari bilan boyitadi. Bu hol Oripov ijodining keng o'quvchilar ommasi tomonidan qabul qilinishini ta'minlagan muhim omillardan biridir.

Abdulla Oripov xalq og'zaki ijodini takrorlash yoki ayni shaklda qo'llash bilan cheklanmay, uni ijodiy qayta ishlaydi, zamonaviy insonning ma'naviy iztiroblari, milliy o'zlikni anglash, vatan, taqdir, hayot va vaqt haqidagi falsafiy mulohazalarni ifoda etishda folklor tajribasidan samarali foydalanadi. Natijada shoir she'rlarida xalq donoligi va zamon ruhi uyg'un bir butunlikni hosil qiladi. Abdulla Oripov she'riyati folklor va zamonaviy adabiy tafakkur sintezining yorqin namunasi. Shoir xalq maqollari, ramzlari va obrazlarini ijodiy qayta ishlash orqali milliy ruhni, xalqning axloqiy va estetik qarashlarini chuqur badiiy ifodalaydi. Folklor unsurlarining bunday talqini Oripov she'riyatining ta'sirchanligi va yashovchanligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shoir she'rlarining asosiy ta'sir va yashovchanlik kuchi ham ularning tabiiyligida, hayot haqiqatlarini ro'y-rost tasvirlaganligidadir. Abdulla Oripov she'riyati xalq e'tirof etgandek, xalq qalbidan chuqur joy olgan. Xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib so'zlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdulla Oripov. Yillar armoni.T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.- 80 bet.
2. Abdulla Oripov, Yillar armoni.T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989. - 445 bet.
3. Abdulla Oripov. Ishonch ko'priklari.T: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1989-72 bet.
4. Ilxom G'aniyev, Nodira Afoqova. Abdulla Orif falsafasi. "Muharrir" nashriyoti. Toshkent-2021.